

## TALABALARDA O'QUV MOTIVATSIYASINI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAHLIL QILISH

**Xamdamova Muazzamxon Xabibullo qizi,**

Qo'qon universiteti Andijon filiali pedagogika, psixologiya va jismoniy  
madaniyat kafedrası psixologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda talabalarda o'quv motivatsiyasining psixologik xususiyatlari, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, motivatsiyaning turlari hamda uni oshirish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, o'quv motivatsiyasini o'lchashda qo'llaniladigan psixologik metodikalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** motivatsiya, o'quv motivatsiyasi, ichki va tashqi motiv, psixologik omillar, talaba, o'qishga munosabat, rag'bat.

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabaning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi. O'quv motivatsiyasi talabaning o'rganishga bo'lgan ichki ehtiyojini ifodalaydi va o'zlashtirish jarayonida asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Psixologik nuqtai nazardan, o'quv motivatsiyasi — bu shaxsning bilim olish, o'rganish va o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan ichki holatidir. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan talaba o'qish jarayonida faol, izlanishga moyil, mustaqil fikrlovchi shaxsga aylanadi.

“Motivatsiya” so'zi lotincha *movere* – “harakatga keltirmoq” so'zidan olingan bo'lib, shaxs faoliyatini ma'lum maqsad sari yo'naltiruvchi ichki omillar tizimini bildiradi.

O'quv motivatsiyasi esa shaxsni bilim olishga, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga undovchi ichki rag'bat va ehtiyojlar yig'indisidir. Psixologik adabiyotlarda (A.N.Leontyev, L.I.Bojovich, S.L.Rubinshteyn) o'quv motivatsiyasi inson faoliyatining harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilinadi.

Psixologiyada motivatsiya ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi:

a. Ichki motivatsiya – o'qish jarayoni talabaning o'zi uchun qiziqarli, foydali bo'lib, bilim olishdan zavq oladi.

Masalan: yangi fanlarni o'rganish, ilmiy izlanish olib borish istagi.

b. Tashqi motivatsiya – o‘qish tashqi rag‘batlar bilan bog‘liq: baho olish, stipendiya, ota-onaning maqtovi yoki kelajakda ish topish umidi.

D.E.McClelland nazariyasiga ko‘ra, shaxsning o‘qishdagi muvaffaqiyati uch asosiy motiv- yutuqqa intilish, hamkorlikka ehtiyoj va ta’sir o‘tkazish istagi bilan belgilanadi.

Talabalarda o‘quv motivatsiyasining shakllanishi bir qator ichki va tashqi omillarga bog‘liq:

| Omillar            | Tavsif                                                                      |
|--------------------|-----------------------------------------------------------------------------|
| Shaxsiy omillar    | Qiziqish, irodaviy sifatlar, o‘zini baholash, mas’uliyat hissi.             |
| Ijtimoiy omillar   | O‘qituvchi va guruhdoshlar bilan munosabat, oila va ijtimoiy muhit ta’siri. |
| Pedagogik omillar  | Dars o‘tish metodikasi, baholash tizimi, o‘quv jarayonining interfaolligi.  |
| Emotsional omillar | O‘qishdan qoniqish, ishonch, muvaffaqiyat hissi yoki qo‘rquv.               |

Agar talaba o‘qish jarayonida o‘zini qadrlangan, muvaffaqiyatli va mustaqil his qilsa, ichki motivatsiya kuchayadi. Aksincha, haddan tashqari bosim yoki qo‘rquv hissi motivatsiyani pasaytiradi.

O‘quv motivatsiyasini psixologik diagnostika qilish uchun turli metodikalar ishlab chiqilgan:

- A.A.Rean va V.A.Yakunin metodikasi – o‘quv faoliyatining ichki va tashqi motivlarini o‘lchaydi.

- T.I.Ilyina testi – “kasbiy yo‘naltirilganlik”, “bilim olishga yo‘nalganlik” va “diplom olishga yo‘nalganlik” motivlarini aniqlaydi.

- L.I.Bojovich yondashuvi – o‘quv motivatsiyasining shakllanishida shaxsiy qadriyat va ehtiyojlarning rolini tahlil qiladi.

Ushbu metodikalar yordamida talabalar o‘rtasida motivatsiya darajasini baholash, ularning o‘qishga bo‘lgan munosabatini chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

### **Talabalarda o'quv motivatsiyasiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tahlil natijalari.**

Tadqiqot doirasida 80 nafar oliy ta'lim muassasasi talabalari o'rtasida o'quv motivatsiyasiga ta'sir etuvchi shaxsiy, ijtimoiy, pedagogik va emotsional omillar bo'yicha so'rovnoma o'tkazildi. Natijalar psixologik jihatdan quyidagi yo'nalishlarda tahlil qilindi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, o'quv motivatsiyasiga eng katta ta'sirni shaxsiy va pedagogik omillar ko'rsatadi.

Shaxsiy omillar talabaning individual xususiyatlari – qiziqish, mas'uliyat hissi, o'zini baholash va maqsadga intilish darajasini ifodalaydi.

- So'rovnomada qatnashgan talabalarning 62% i o'qishga ichki ehtiyoj va qiziqish sababli jalb etilganini bildirdi.

- 21% talaba o'qishni diplom yoki kelajakdagi ish imkoniyati uchun muhim deb hisoblaydi.

- 17% talabada esa o'zini baholashda ishonchsizlik kuzatildi, bu motivatsiya darajasining pastligiga olib kelmoqda.

Talabalar o'rtasida ichki motivatsiya ustun bo'lsa-da, shaxsiy maqsadni aniqlab olish, o'ziga ishonchni oshirish bo'yicha psixologik qo'llab-quvvatlash zarur.

Ijtimoiy omillar o'qituvchi, guruhdoshlari, oila va jamiyatning talaba motivatsiyasiga ko'rsatadigan ta'sirini qamrab oladi.

- Talabalarning 48% i o'qituvchining shaxsiyati va o'qitish uslubini asosiy motivatsion manba sifatida ko'rsatdi.

- 32% talaba o'qishga bo'lgan rag'batni do'stlar va guruhdoshlar bilan raqobat orqali his qilmoqda.

- 20% i esa o'qishdagi sustlikni oilaviy qo'llab-quvvatlashning yetarli emasligi bilan izohladi.

Ijtimoiy omillar, ayniqsa o'qituvchining kommunikativ qobiliyati va talabalar bilan ijobiy muloqoti motivatsiyani oshiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Pedagogik omillar ta'lim jarayonining mazmuni, metodikasi, baholash tizimi va o'qituvchi faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

- 55% talaba dars jarayonida faol metodlar (munozara, loyiha, interfaol topshiriqlar) motivatsiyani kuchaytirishini aytdi.

- 27% talaba baholash tizimi adolatli bo'lsa, o'qishga rag'batini ortishini ta'kidladi.

• 18% talaba esa darslarning bir xil va nazariy yo‘nalishda o‘tishini motivatsiyani pasaytiruvchi omil sifatida ko‘rsatdi.

Pedagogik jihatdan o‘qitish metodlarini diversifikatsiya qilish va talabalarning faolligini oshiruvchi yondashuvlar motivatsiyani sezilarli oshiradi.

Emotsional omillar talabaning his-tuyg‘ulari, o‘qish jarayonida o‘zini qanday his qilishi bilan bog‘liqdir.

• 60% talaba o‘qish jarayonida o‘zini ishonchli va qulay his qilishini bildirgan.

• 25% talaba stress, xavotir va muvaffaqiyatsizlik qo‘rquvini motivatsiyani pasaytiruvchi asosiy holat sifatida qayd etgan.

• 15% talaba esa ijobiy rag‘bat, maqtoov va qo‘llab-quvvatlashni motivatsiyani oshiruvchi omil deb hisoblaydi.

Ijobiy emotsional muhit, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi samimiy muloqot, muvaffaqiyatni qadrlash o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi.

Shaxsiy va pedagogik omillar esa motivatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi muhim shartlar sifatida baholandi.

| Omillar            | Motivatsiyaga ta’sir darajasi (%) |
|--------------------|-----------------------------------|
| Shaxsiy omillar    | 32%                               |
| Ijtimoiy omillar   | 23%                               |
| Pedagogik omillar  | 28%                               |
| Emotsional omillar | 17%                               |

Talabalarda o‘quv motivatsiyasini oshirish uchun quyidagi psixologik-pedagogik yondashuvlar muhim:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – har bir talabani individualligini inobatga olish.
2. Faol o‘qitish metodlari – muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari, rol o‘yinlari, munozaralardan foydalanish.
3. Rag‘batlantirish va maqtoov – kichik yutuqlarni qadrlash orqali ishonchni oshirish.
4. Kasbiy yo‘nalish bilan bog‘lash – fanlarni talabalarning kelajakdagi kasbi bilan uyg‘unlashtirish.

5. Refleksiya va o'zini baholash – o'z o'qish faoliyatini tahlil qilishga o'rgatish.

Talabalarda o'quv motivatsiyasi – bu ularning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi psixologik asosdir. Ichki motivatsiya kuchli bo'lgan talaba mustaqil fikrlaydi, o'zini rivojlantirishga intiladi va o'qishni shaxsiy qadriyat sifatida qabul qiladi. Shu sababli ta'lim jarayonida motivatsiyani kuchaytiruvchi shart-sharoitlar yaratish, o'qituvchi va talaba o'rtasida ijobiy psixologik muhitni ta'minlash zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maslow, A. H. (1943). A theory of human motivation. *Psychological Review*, (1943), 370–396. <https://doi.org/10.1037/h0054346>
2. Deci, E. L., & Ryan, R. M. *Intrinsic motivation and self-determination in human behavior*. Springer Science & Business Media. (1985)
3. UNESCO. *Education for sustainable development goals: Learning objectives*. Paris: UNESCO Publishing. (2022)
4. Vroom, V. H. *Work and motivation*. New York: Wiley. (1964)
5. Khamdamova M., Negmatova A. *Factors affecting educational motivation*. Middle European Scientific Bulletin (ISSN 2694-9970) January, vol.44 (2024) page 35-39.
6. Xamdamova Muazzamxon Xabibullo qizi. *Oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv motivatsiyasini oshirishning psixologik mexanizmlari*. OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI. 2025, №3.